

**BOSHQARUV JARAYONLARIGA AUTSORSING MODELINI QO'LLASH
SAMARASI**

Karimov Jaloliddin Abulato o'g'li

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi
talabasi*

Annotatsiya: *hozirgi o'qiyotgan maqolangizda muallif davlat hokimiyati organlari faoliyatini samaradorligini oshirish, fuqarolarga xizmat ko'rsatish sohalarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, shuningdek bu borada respublikamizda olib borilayotgan islohotlar hamda zamonaviy mexanizm uslublardan foydalanish to'g'risida tahlil o'tkazilgan. Shu asosda, davlat hokimiyati organlarida outsorsing mexanizmini qo'llash, shu jumladan davlat organlarifunksiyalarini outsorsing asosida xususiy sektorga berish va ularni tanlash bo'yicha tanlov o'tkazish tizimini joriy etilishi davlat organlari faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi.*

Kalit so'zlar: *e-hukumat, zamonaviy boshqaruv, davlat xizmati, samaradorlik, intellektuallik.*

So'nggi yillarda bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar natijasida, davlat boshqaruvida qo'yiladigan talablar ham ortib bormoqda, uning samaradorlikini oshirish, boshqaruv natijasida ko'proq natijasiga erishish dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Shuning uchun davlat boshqaruvida samaradoligini oshirish maqsadida "Elektron hukumat" (E-government) tizimidan va ma'muriy davlat boshqaruv usullarining zamonaviy modellaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 18 noyabrda "Elektron hukumat to'g'risida"¹ gi O'RQ-395 sonli qarori asosida davlatimiz boshqaruv tizimida jahon tajribasidan foydalangan holda yuqori reytingda olib chiqish boshlandi. Hamda 2018 yil 21 noyabrdagi PQ- 4022 son,¹ 2018 yil 13 dekabrdagi PF-5598-son,² 2019 yil 18 maydagi PQ-4321-son,³ 2019 yil 21 maydagi PQ-438-sonli⁴ farmon va qarorlari asosida boshqaruv samaradorligini oshirish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Undan tashqari, hozirgi kunda boshqaruv samaradorligini yanada yaxshilash maqsadida

¹ O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida" gi qonuni <https://lex.uz/docs>

¹ Raqamli iqtisodiyetni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmalari yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari tuzg'risida - <https://lex.uz/docs/4071219>

² Uzbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyet, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish b'uyicha k'ushimcha chora-tadbirlar tuzg'risida - <https://lex.uz/docs/4103415>

³ Raqamli iqtisodiyet va «elektron hukumat» tizimi infratuzilmalari yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tuzg'risida - <https://lex.uz/docs/4344411>

⁴ Elektron hukumat tizimi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari tuzg'risida - <https://lex.uz/docs/4346966>

⁵ Шестоперов А.М. Аутсорсинг как способ оптимизации административно – управленческих процессов в органах государственной власти. // Национальным институтом системных исследований проблем предпринимательства НИСИП, -М.:2007. С.22.

ma'muriy boshqaruv usulining zamonaviy modellaridan foydalanish bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda.

Boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mamlakatimizdagi davlat hokimiyati organlari faoliyatini samaradorligini oshirish, ularning faoliyatida jahon tajribasida tan olingan outsorsing mexanizmini qo'llash, ilmiy va amaliy taklif va tafsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida taqqoslash, guruhlash, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil usularidan keng foydalanildi. Tadqiqot natijasida davlat hokimiyati organlari, aholi va tadbirkorlik sub'ektlari, shuningdek xorijiy investorlarning ehtiyojlari to'liq qanoatlantirishda, tezkor va sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Mazkur sohada doir huquqiy hujjatlar hamda bu borada rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi.

“Outsorsing - shartnoma munosabatlari tizimining shakli bo'lib, ingliz tilidagi “tashqi manbalardan foydalanish”⁵ degan qisqartirishining bir turi sifatida, davlat hokimiyati organlarida tashqi resurslardan foydalanishni anglatadi.

Davlat xizmatlarini outsorsing asosida ko'rsatishda outsorsing tashkilotlari bir nechta kompaniya o'rtasida tender o'tkazish yo'li bilan tanlanadi, bunda kompaniyalarning moliyaviy, intellektual, tashkiliy imkoiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, muayyan bir xizmat bir nechta tashkilot tomonidan ko'rsatiladi. Bu esa xizmat bozorida monopoliyaning, xizmat narxlari qimmatlashuvining oldini oladi. Australiyada o'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, kommunal xizmatlarni outsorsing asosida ko'rsatish xizmat haqqining ko'tarilishiga olib kelmagan va outsorsing xizmatlari har tomonlama samarali ekani tasdiqlangan.

Hali bunday boshqaruv usuli Ozbekiston amaliyotida kuzatilmagan bo'lsada, lekin bir qancha chet davlatlarda undan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Misol uchun Australiyada jazoni ijro etish muassasalari bo'yicha xizmatlar to'laqonli xususiy sektor tomonidan ko'rsatiladi. Shuningdek, yong'in xavfsizligi bo'yicha xizmatlar ham outsorsing asosida tashkil qilingan.

Hozirgi kunda boshqa chet davlatlar boshqaruvning deyarli teng yarmida bu mexanizmdan foydalanadi. “Angliya, Germaniya va Niderlandiyada davlat xizmatlarining 50-60 foizi, Meksika va Gretsiyada 20-30 foizi outsorsing asosida ko'rsatiladi”³⁻¹. Angliya mehnat bozoridagi xizmatlarning deyarli 90 foizi xususiy kompaniyalar tomonida ko'rsatiladi. Shaxsni ishsiz deb topish, unga nafaqa tayinlash, xodimlarni qayta tayyorlash bo'yicha o'quv muassasalarini tanlash, ish beruvchilarning bo'sh ish o'rinlarini xizmat portaliga joylashtirish kabi xizmatlar shular jumlasidandir. Germaniyada outsorsing asosida 18 ta xizmatni 2854 ta kompaniya ko'rsatadi. Bunda xususiy kompaniyalar bilan outsorsing shartnomasi

³⁻¹ Азизов Ш. Ауторсинг институти афзалликлари. Ҳуқуқ ва бурч №11/2019. Б. 48

²The 5 Best Countries To Outsource To In 2019-

<https://markets.businessinsider.com/news/stocks/the-5-best-countries-to-outsource-to-in-2019-plus-the-top-14-outsourcing-companies-data-entry-agencies-1028079868>

tuziladi va unda taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnomaning amal qilish muddati, narxlar va xizmatlarning doirasi belgilanadi. Outsorsing kompaniyalari o'z faoliyatida Germaniya qonunchiligi va tuzilga shartnoma shartlariga amal qilish lozim. Mamlakatda iqtisodiy moliyaviy xizmatlarni outsorsing asosida ko'rasatish ayniqsa rivojlangan. Misol uchun, auditorlik, sug'urta va bug'alteriya bo'yicha xizmatlar shular jumlasidandir. "2019 yilda jahon miqyosida Xitoy, Flippin, Tayvan, Ukraina va Vetnamda outsorsing kompaniyalari shiddat bilan rivojlandi"².

Autsorsing institutining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklarini pastdagi ilovada ko'rishimiz mumkin. Quyida keltirilgan kamchiliklarning ba'zilari ikki tomonlama shartnomaning mukammal shakllantirilganligi natijasida yuzaga keladi.

Пова

АФЗАЛЛИКЛАР	КАМЧИЛИКЛАР
<p>1. Асосий фаолиятга эътибор қаратиш;</p> <p>2. Мавжуд бўлмаган ресурслар ва фондларга кириш (профессионал ходимлар, молиявий, ахборот ресурслари, ишлаб чиқариш активлари)</p> <p>3. Аутсорсинг функциялари нархини пасайтириш;</p> <p>4. Жамоа сармояси орқали хатарларни камайтириш;</p> <p>5. Сифатни яхшилаш;</p> <p>6. Иккинчи даражали фаолият соҳаларига маблағ сарфлашга ва мавжуд сафарбарлик маблағларини сарфларини катта миқдорда йўналтиришга ҳожат йўқ;</p> <p>7. Давлат ҳокимияти органларидаги жараёнларни тўхтаб қолишининг субектив сабабларга боғлиқлиги (ҳодимларнинг касаллиги, низолар) минималлаштиради;</p> <p>8. Асосий йўналишларда концентрацияни умумлаштириш ва ходимлар меҳнатидан самарали</p>	<p>1. Аутсорсингга ўтказилган функциялар устидан назоратни йўқотиш;</p> <p>2. Ахборотнинг тарқалиши;</p> <p>3. Ташқи манбанинг ишончсиз деб топилганда, сифатнинг ёмонлашуви;</p> <p>4. Ҳамкорга қарамликнинг пайдо бўлиши, айниқса маблағ тайинланиши билан боғлиқ муҳим функциялар аутсорсингга ўтказилса;</p> <p>5. Логистик жараёнларнинг мураккаблашиши;</p> <p>6. Даставвал, аутсорсинг билан шартнома қилинаётганда ходимлар ўртасидаги ижтимоий таранглик, четга сурилган ходимлардаги очиқ қаршилик;</p> <p>7. Хизмат кўрсатувчи провайдер (пудратчи) ва миждозлар, давлат органи назорат қилиувчи ходими ўртасида тил бириктириш эҳтимоли;</p> <p>8. Ўз мутахассисларини тайёрлаш ва ўсиш имкониятини чеклаш;</p>

фойдаланиш туфайли меҳнат унумдорлиги ошиши;

9. Ҳар бир мутахассиснинг билим даражаси ва малакаси чекланганлиги сабабли, аутсоринг ёрдамида “жамоавий” интелектни жалб қилиш мумкин;

10. Муаммони ҳал қилишда бировнинг тажрибаси ва “алгоритмларидан” фойдаланиш;

11. Энг янги технологиялардан фойдаланиш.

9. Етказиб берувчи томонидан эскирган технологиядан фойдаланиш.

Bugungi kunda O'zbekistonda outsorsing xizmatidan foydalanish bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekiston sharoitida davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatilayotgan ayrim xizmatlarni outsorsing orqali xususiy tashkilotlarga o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi talablarga e'tibor berish kerak:

- xizmat ko'rsatish jarayoni murakkab emasligiga;
- taqdim etiladigan hujjatlar soni kamligiga;
- qog'oz ko'rinishida olib qolinadigan hujjatlar bo'lmasligiga;
- xizmat uchu xususiy tashkilot foydalanadigan electron tizimda shaxsiy va davlat siri bilan bog'liq ma'lumotlar bo'lmasligiga;
- xizmatga talabning ko'pligiga;

Davlat hokimiyati organlarining ba'zi funksiyalarini outsorsingga o'tkazishda quyidagi omillarga amal qilish lozim bo'ladi. Jumladan, mazkur tizimni tartibga soluvchi normativ- huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqib, qonunchilikda belgilangan va sohadagi ijro hokimiyati tomonidan amalga oshiriladigan davlat funksiyalarini aniqlash kerak. Xususan, davlat organi funksiyasining faqat bir davlat organi tomonidan bajarilayotgani va ushbu vazifani sohaning faqat bitta ijro etuvchi organi amalga oshirishi zarurligi tahlil etiladi hamda raqobat muhitining mavjudligi aniqlanadi. Bundan tashqari, funksiyalar darajasi faoliyat doirasida qarab aniqlanadiva nodavlat tashkilotlarning ushbu funksiyasini amalga oshirish imkoniyatlari o'rganiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Australiya boshqaruv samaradorligini baholash tadqiqot markazining bergan ma'lumotiga⁴⁻¹ ko'ra davlat boshqaruvida outsorsing xizmatidan foydalishgandan keyin, uchta eng muhim natijasi ma'lum bo'lgan:

⁴⁻¹ <https://www.researchgate.net>

- samaradorlik
- mablag' tejash
- korrupsiyani oldini olish

Shuningdek, firibgarlik, turli xil jinoyatlar ham qisqaradi va boshqaruvda ichki nazorat barqarorlashadi.

O'zbekiston hududida boshqaruv samaradorligi past ekanligi sababli, u transformatsiyaga mo'htoj, shuning uchun ko'pgina sohlarda outsorsing mexanizmini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, MTMda bolalarga sog'lom baquvvat ovqat yetkazish uchun xususiy sektorlardan foydalanish lozim, undan tashqari jazoni ijro etish muassasalari ham outsorsing mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiqdir, deyarli barcha sohalarda outsorsing mexanizmini qo'llansa uning samaradorligi oshadi.

Bundan shuni tushunish mumkinki, ko'plab rivojlangan davlatlar davlat xizmatlarining samaradorligini ta'minlash va byudjet mablag'laridan foydalanish hamda ularni oqlash yo'lida outsorsing modelidan keng foydalanayotgani bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida" gi qonuni <https://lex.uz/docs> Raqamli iqtisodiyatni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuзилmani yanada modernizatsiya qiliش chora-tadbirlari t'g'risida - <https://lex.uz/docs/4071219>

2. Ўзбекистон Республикаси давлат бошқарувиға рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида - <https://lex.uz/docs/4103415>

3. Рақамли иқтисодиёт ва «электрон ҳукумат» тизими инфратузилмаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида - <https://lex.uz/docs/4344411>

4. Электрон ҳукумат тизими доирасида ахборот-коммуникация технологиялари соҳасидаги лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш сифатини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида - <https://lex.uz/docs/4346966>

5. Шестоперов А.М. Аутсорсинг как способ оптимизации административно – управленческих процессов в органах государственной власти. // Национальным институтом системных исследований проблем предпринимательства НИСИП, -М.:2007. С.22.